

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

SATTAROV FOZIL FAXRITDINOVICH

ZAMONAVIY JAMIYATDA O‘SMIR XULQ-ATVORINING IJTIMOIIY
DETERMINANTLARI (IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI)

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of Philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Sattarov Fozil Faxritdinovich

Zamonaviy jamiyatda o‘smir xulq-atvorining ijtimoiy
determinantlari (ijtimoiy-falsafiy tahlili) 3

Саттаров Фозил Фахритдинович

Социальные детерминанты поведения подростков в современном
обществе (социально-философский анализ) 23

Sattarov Fozil Fakhriddinovich

Social determinants of adolescent behavior in modern
society (socio-philosophical analysis)..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of publications 50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

SATTAROV FOZIL FAXRITDINOVICH

ZAMONAVIY JAMIYATDA O‘SMIR XULQ-ATVORINING IJTIMOIIY
DETERMINANTLARI (IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI)

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fal998 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar

Negmatova Shaxzoda Shuxratovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Choriyev Sanjarbek Anvarovich
falsafa fanlari doktori, professor

To‘ychiyev Berdiqu To‘raqulovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil “26” Iyun soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “13” Iyun kuni tarqatildi.

(2024 yil “13” iyun dagi 6 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Navro‘zova G. N.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipova O.T.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashev tufayli vujudga kelayotgan o‘smirlar ma’naviy-axloqiy qiyofasi va xulq-atvorida turli zararli g‘oyalarning ta’sirida destruktiv o‘zgarishlarning sodir bo‘layotgani yoshlar orasida milliy, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllanishiga to‘siq bo‘lmoqda. O‘smirlarda kuzatilayotgan deviant xulq-atvor ko‘rinishlari oila, ta’lim muassasasi, jamoat joylarida kishilarni tashvishga solib, o‘z navbatida, ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish, xalqlar osoyishtaligi va tinchligiga tahdid solayotgan omillarni bartaraf etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan o‘smirlar deviant xulq-atvorida ijtimoiy-ma’naviy hayot bilan bog‘liq me’yorlar va qoidalarni salbiy ko‘rinishlarni aniqlash, negativ shaxsiy xarakteridagi jismoniy va verbal tajovuzlar, yuqori darajadagi o‘zini-o‘zi idora qila olmaslik, emotsional labillik holatlarining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani hamda yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida o‘smirlar ma’naviy hayotining transformatsiyasi, dunyo xalqlarida azaldan shakllangan mental xususiyatlar, milliy o‘ziga xoslik, ma’naviy an’analarni asrab qolish bilan bog‘liq jarayonlar, shuningdek mazkur voqelik bilan bog‘liq qonuniyatlarga doir innovatsion tadqiqotlar olib borilmoqda. O‘smirlar hayoti ma’naviy barqarorligini ta’minlash, ularning ongida bunyodkorlik va yaratuvchanlik fazilatlarini shakllantirish ustuvor vazifalar etib belgilanib, o‘smirlarning ijtimoiy, ma’naviy, axloqiy hayotini sog‘lomlashtirish va bu orqali jamiyat ma’naviy yuksalishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, o‘smirlarning g‘ayriqonuniy yoki g‘ayrime’yoriy xatti-harakatlarining o‘ziga xos muvofiqlik postulatini, determinantlari va qonuniyatlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

O‘zbekiston jamiyatida yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan yoshlarni kamol toptirish, intellektual salohiyati, ong-u tafakkurini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga oid islohotlar jadallik bilan olib borilmoqda. “Murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarning salbiy ta’siri ortib, odamlarning ongi va qalbi uchun kurash kuchayib borayotgan bugungi kunda yurtimiz sarhadlari va mamlakatimiz hayoti, barcha sohalarini g‘oyaviy himoyalash ishlari zamon talablari, islohot va yangilanishlar sur’atidan ortda qolmoqda va bu tashvishli hol, albatta. Ushbu masalalarni o‘rganish borasidagi ilmiy tadqiqotlar esa tor doirada amalga oshirilmoqda. Ularning ba’zilari hozirgi hayot voqeligi va uning talablaridan uzilib qolgani, ayrimlarining natijalari amaliyotga sust joriy etilayotgani ham kutilgan samarani bermayapti”¹. Shu jihatdan zamonaviy jamiyatda o‘smirlar ma’naviy-axloqiy qiyofasini barqarorlashtirish, o‘smirlar xulq-atvorining ijtimoiy determinantlarini aniqlash va ularning epistemologik, akmeologik, akseologik jihatlari va ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini asoslab berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – B.268.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yoshlar va voyaga yetmaganlar tarbiyasi, o‘smir yoshdagilarning ma‘naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish, ularda insoniylik fazilatlarini yuksaltirish va uning ijtimoiy-ma‘naviy hayot barqarorligiga ta‘siri muammolari dastlab yunon faylasuflari Aristotel, Platon va qadimgi Rim mutafakkiri Sitseron hamda Xitoy mutafakkiri Konfutsiy asarlarida o‘z aksini topgan². O‘smirlar tarbiyasi va uni umuminsoniyat ma‘naviy barqaror taraqqiyotidagi rolini xorijiy tadqiqotchilar J.Sartr, G.Marsel, K.Yaspers, A.Adler, K.Yung, K.Rodgers, E.Dyurkgeym, R.Sternberg o‘z asarlarida izohlab berganlar³.

O‘smirlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ularda ijtimoiy, huquqiy va siyosiy tafakkurni shakllantirish borasidagi fikrlar o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo mutafakkirlari Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Nizomulmuluk, Yusuf Xos Hojib, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalarning qarashlarida aks etgan⁴. Yoshlar ta‘lim-tarbiyasini yuksaltirish,

² Чориев А. Инсон фалсафаси. Мустақил шахс. Иккинчи китоб. – Т.: Чинор, 2002;

³ Сартр Ж.П. Трансценденция его: набросок феноменологического описания./ Пер.с фр. Д.Кралечкина. – М.: Модерн, 2012.; Ясперс К. Общая психопатология / Пер. с нем. Л.О. Акоюяна. – Москва: Практика, 1997.; Адлер А. Понять природу человека. – СПб.: Академический проект, 1997.; Юнг Карл. Проблемы души нашего времени. – СПб.: – Питер, 2002.; Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека. – Москва: Прогресс, 1994. – С. 480.; Дюркгейм Э. Ценностные и реальные суждения // Социологические исследования. 1991. №2. – С. 109-110.; Стернберг Р. Практический интеллект. – СПб, – Питер, 2002. – 272 с.

⁴ Имом ал-Бухорий. Саҳиҳи Бухорий. – Тошкент: Ҳилол нашр, 2022.; Аҳмад Яссавий. Девони Ҳикмат. – Тошкент: Наврӯз, 2018.; Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983.; Ибн Сина. Избранные философские произведения. – Москва: Наука, 1980.; Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: Фан, 1997.; Низомулмулк. Сиёсатнома. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008.;

ijtimoiy qarashlarini shakllantirish va ularning ma'naviy hayoti barqarorligi ta'minlash borasidagi ilg'or fikrlar jadid ziyolilaridan A.Avloniy, Munavvar Qori, A.Fitrat, M.Behbudiy, S.Ayniy kabi ko'plab allomalarning asarlarida o'z aksini topgan⁵.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida o'smirlar xulq-atvori ijtimoiy determinantlari, ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasi muammosi bilan keng ma'noda ilmiy tadqiqotchilar I.Nevskiy, I.Kon, M.Bobneva, L.Jezlova, V.Petrovskiy, Y.Gilinskiy, V.Afanasev, Y.Shcherbakova, L.Zyubin kabi olimlar shug'ullanganlar⁶.

Mamlakatimizda o'smirlar xulq-atvori tarzi va uning ma'naviy-axloqiy muammolari hamda uning ijtimoiy, pedagogik va psixologik talqinini yoritishda A.Munavvarov, O.To'rayeva, N.Qosimov, Sh.Jumayev, T.Tog'ayqulov, P.Ergashev, A.Ubaydullayev, B.Umarov, N.Komilova kabi olimlarning izlanishlarini alohida ta'kidlash lozim⁷. Yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, o'smirlar hayotidagi salbiy ko'rinishlarga qarshi kurashning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari borasidagi tadqiqotlar J.Yaxshilikov, N.Muhammadiyev, N.Jo'rayev, Q.Nazarov, S.Otamurodov, M.Quronov, A.Erkayev, O.G'aybullayev, A.Saitkasimov, Sh.Negmatova, B.Tuychiyev, S.Choriyev ilmiy ishlarida tadqiq etilgan⁸.

Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019.; Баҳоуддин Нақшбанд. Аврод. (Авроди Баҳоия)/ Г.Наврўзова таржимаси. – Бухоро: Бухоро, 2000.; Алишер Навоий. Садди Искандарий. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009.; Бобур. Бобурнома. – Тошкент, Ўқитувчи, 2008.

⁵ Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.; Мунаввар Қори. Хитобнома. – Тошкент: Маънавият, 2022.; Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000.; Бехбудий. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2006.; Садриддин Айний. Асарлар. 8 жилдлик. 5-жилд. Эсдаликлар. 1-2-қисм. – Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1965.

⁶ Невский И. Учителю о детях с отклонениями в поведении. – Москва: Просвещение, 1993. – С. 270.; Кон И. Психология ранней юности. – Москва: Педагогика, 1989. – С. 174.; Бобнева М. Социальные нормы и регуляция поведения. – Москва: Наука, 1987. – С.309.; Петровский В. Идея свободной причинности в психологии. <https://www.psychology.ru/library/00074.shtml>; Гилинский Я.И., Афанасьев В.С. Социология девиантного поведения (отклоняющегося) поведения: Учебное пособие. – СПб: Филиал института социологии РАН, 1993. –С. 12.; Данилов-Данилян В. Устойчивое развитие-проблема выживания человека. Наука. Общество. Человек. – Москва. 2004. – С. 143.; Эльконин Д. Избранные психологические труды. – Москва: Педагогика, 1989.; Щербакоева Е. Возрастные границы отрочества и юности не жестки. // Демоскоп Weekly. 2012. №1. 509-510.; Гримак Л.П. Разрывы человеческой психики. М.: Политиздат. 1989. 173 с., Зюбин Л.М. Психология воспитания. – М.: Высшая школа. 1991. С.10.

⁷ Педагогика. Ўқув қўлланма. А.Қ.Мунавваровнинг умумий таҳрири остида. – Т.: Ўқитувчи, 1996.; Тўраева О. Оилавий ҳаёт этикаси ва психологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1990.; Қосимов Н., Жумаев Ш., Тоғайкулов Т. Глобаллашув: оила ва фарзанд тарбияси (Ота-оналар учун илмий-амалий қўлланма). – Тошкент: Тугон zamin ziyo, 2016.; Эргашев П., Убайдуллаев А. Тартибли ва тартибсиз хулқ-атвор психологияси. – Тошкент, 2014.; Умаров Б.М. Болалар ва ўсмирларда хулқ оғиши келиб чиқишининг ижтимоий-психологик сабаблари. // Психология. 2011. № 4. – Б. 30-34.; Комилова Н.Ф. Хулқи оғишган болалар психологияси. (Ўқув қўлланма) – Т.: Фан ва технологиялар, 2007.

⁸ Яхшиликков Ж., Муҳаммадиев Н. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. – Тошкент: Чўлпон, 2018.; Жўраев Н. Янгиланишлар концепцияси: яратилиши, эволюцияси, амалиёти. – Тошкент: Маънавият, 2002.; Назаров Қ. Маънавий кадрлар ва инсон кадри. – Т.: Маънавият, 2011.; Отамуродов С. Миллий ривожланиш фалсафаси. – Тошкент: Академия, 2005.; Қуронов М, Мирзаев Ғ ва бошқ. Ободлик кўнгиладан бошланади. – Тошкент: Сано-стандарт, 2013.; Эркаев А. Ўзбекистон йўли. – Тошкент: Маънавият, 2011; Файбуллаев О. Шахс маънавий камолоти ва эстетик маданият. Монография. – Тошкент: Чашма принт, 2008.; Сaitкасимов А. Жамият барқарорлиги ва шахс масъулияти. – Тошкент: Тафаккур, 2012.; Негматова Ш.Ш. Ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиёти шароитида соғлом рақобатни ривожлантиришнинг маънавий, ахлоқий ва ҳуқуқий жиҳатлари. / фалс. фан.докт. дисс. – Самарқанд, 2018.; Тўйчиев Б. Политическая культура и демократизация общества. – Тошкент, 2010.; Чориев А. Инсон фалсафаси. Мустақил шахс. Иккинчи китоб. – Т.: Чинор, 2002.

Yuqorida qayd etilgan adabiyotlar tahlili va ularda tadqiq etilgan muammolar mamlakatimizda aynan o‘smirlar xulq-atvorining ijtimoiy determinantlari, o‘smirlar ma’naviy-axloqiy qiyofasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmaganligini ko‘rsatmoqda. Ushbu dissertatsiya ishida o‘smirlar xulq-atvorining ijtimoiy determinantlarini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tadqiq etishga e’tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekistonda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning falsafiy asoslari” (2020-2025-yy) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jamiyatda o‘smirlar xulq-atvorining shakllanish ijtimoiy determinantlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘smir xulq-atvori tushunchasi hamda uning zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy hayot bilan bog‘liq determinantlarini o‘rganishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini tadqiq etish;

deviant xulq-atvor, uning o‘smir ijtimoiy-ma’naviy muhitidagi destruktiv xususiyatlari va ularni bartaraf etish omillarini aniqlash;

zamonaviy sharoitda o‘smirlar xulq-atvori ijtimoiy determinantlarining shakllanish qonuniyatlarini ochib berish;

o‘smir xulq-atvoridagi salbiy ko‘rinishlarni bartaraf etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda ma’naviy-axloqiy tarbiyaning o‘rnini asoslab berish;

davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligi asosida zamonaviy jamiyatda o‘smir xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarni oldini olish va bartaraf etishning omillari va yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida zamonaviy jamiyatda o‘smirlar xulq-atvorining namoyon bo‘lish shakllari va ma’naviy-axloqiy qiyofasi tanlab olingan.

Tadqiqot predmeti zamonaviy jamiyatda o‘smirlar xulq-atvorining ijtimoiy determinantlarini ijtimoiy-falsafiy kontekstda tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, empirik-sotsiologik kuzatuv kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘smirlarning deviant xulq-atvorida axloqiy me’yorlar va qoidalarni buzish bilan bog‘liq epileptoid (tajovuzkorlik, qo‘pollik), isterioid (o‘zini ko‘rsatish, manmanlik) va gipertim (o‘zini haq deb bilish, muomala odobiga amal qilmaslik) kabi salbiy holatlarni oldini olishda innovatsion fikrlashni o‘rgatish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ijtimoiy tuzilmalarning faoliyatini takomillashtirish zarurati falsafiy asoslangan;

o‘smirlar negativ xarakteridagi jismoniy va verbal tajovuzlar, o‘zini o‘zi idora qila olmaslik, emotsional labillikning ijtimoiy-madaniy jarayonlarga moslasha

olmaslik, huquqbuzarlikka moyillik, ma'naviy begonalashuv holatlari bilan adekvat ekanligi, ularni jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va yoshlarning bandligini ta'minlash, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish asosida bartaraf etish imkoniyatlari mantiqiy dalillangan;

o'smirlar g'ayriqonuniy yoki g'ayriaxloqiy xatti-harakatlarini umumijtimoiy me'yorlarga moslashtirishda gemostatik (xatti-harakatlarni muhit bilan muvofiqlashtirish), pragmatik (foйда olish va naf ko'rish bilan bog'liq holatlarga muvofiqlashtirish) postulatlarini g'oyaviy tarbiya (yo'naltiruvchi), bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishga chorlash (korreksion-rivojlantiruvchi) hamda bilim va ko'nikmalarni ijtimoiy amaliyotda qo'llash (prakseologik) bosqichlari aniqlashtirilgan;

zamonaviy jamiyatda o'smirlar xulq-atvori shakllanishi determinantlarining qonuniyatlari ma'naviy-axloqiy qiyofaning barqarorligini ta'minlashi, fuqarolik mas'uliyatini yuksaltirishi, ma'naviy hayotning ijtimoiy tizimlarga ijobiy ta'sirini oshirishi, ijtimoiy mas'uliyat yuklashi, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlar uyg'unligini ta'minlashi falsafiy asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

zamonaviy jamiyatda o'smirlar xulq-atvori ijtimoiy determinantlarini tadqiq etishda baholash, tanqidiy, prognostik, tavsiyaviy, ogohlantiruvchi, yo'naltiruvchi, axborotli va modellashtirish funksiyalari hamda o'smirlar xulq-atvorining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq o'zgaruvchanlik, o'zaro aloqadorlik, vorisiylik, notekislik, takrorlanish qonuniyatlari aniqlashtirilgan;

o'smirlarning xulq-atvori ijtimoiy determinantlarini aniqlashning epistemologik, akmeologik, akseologik xususiyatlari aniqlangan hamda ma'naviy transformatsiya sharoitida deviant xulq-atvorni oldini olish va bartaraf etishga oid yondashuvlar asoslab berilgan;

jamiyat ma'naviy barqarorligini ta'minlash va o'smirlar deviant xulq-atvoridagi muammolarni bartaraf etishning jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, huquqiy savodxonlikni oshirish (huquqiy soha), ijtimoiy rehabilitatsiya markazlari faoliyatini takomillashtirish, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyani kuchaytirish (ma'naviy-ma'rifiy soha), yoshlar bandligini ta'minlash, kasb-hunarlarini egallashiga imkoniyat yaratish (ijtimoiy-iqtisodiy soha) yo'nalishlari aniqlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yoshlar hayoti ma'naviy barqarorligini ta'minlashda o'smirlarning xulq-atvoridagi ijtimoiy determinantlarni tahlil etish, yoshlardagi salbiy

o'zgarishlarni oldini olish va mavjud holatlarni bartaraf etish borasida ilgari surilgan konseptual ahamiyatga ega bo'lgan g'oyalardan yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq vazifalarni samarali amalga oshirishda, yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni shakllantirishda, uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda o'zaro samarali hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish va hayotga joriy etishda, farzand tarbiyasi bo'yicha bilim va madaniyatni oshirish, sog'lom dunyoqarashni shakllantirish hamda shu sohaga oid metodologik yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda nazariy-metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati huquqni muhofaza qilish organlari, davlat, jamoatchilik tizimlari va ma'naviy-ma'rifiy markazlar, ijtimoiy-siyosiy institutlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tuzilmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa turdagi fuqarolik jamiyati infratuzilmalarining yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ularning iste'dodini ro'yobga chiqarishga qaratilgan ijtimoiy-madaniy tadbirlar, sport musobaqalari hamda intellektual tanlovlar, festivallarni tashkil etish, talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini hamda intellektual salohiyatini oshirishda ilmiy asoslangan targ'ibotning zamonaviy va ta'sirchan metodlarini ishlab chiqishda, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, vatanparvar va xalqparvar avlodni tarbiyalash, huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida dasturlar ishlab chiqishda, shuningdek, maktabgacha va maktab ta'lim tizimida bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish faoliyatida va ta'lim tizimida mavzuga oid darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, monografiyalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonaviy jamiyatda o'smirlar xulq-atvori ijtimoiy determinantlarini ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini tadqiq qilish asosida:

o'smirlarning deviant xulq-atvorida axloqiy me'yorlar va qoidalarni buzish bilan bog'liq epileptoid (tajovuzkorlik, qo'pollik), isterioid (o'zini ko'rsatish, manmanlik) va gipertim (o'zini haq deb bilish, muomala odobiga amal qilmaslik) kabi salbiy holatlarni oldini olishda innovatsion fikrlashni o'rgatish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ijtimoiy tuzilmalarning faoliyatini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining profilaktik targ'ibot tadbirlari, davra suhbatlarini olib borishda, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish yuzasidan loyihalar ishlab chiqish jarayonida, 2023-yil ish rejasini tuzish va amalga oshirishda hamda "Inspektor-psixologlarning voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish metodikasi" uslubiy qo'llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatining 2024-yil 17-yanvardagi 26/1-105-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'smirlar orasida ijtimoiy-ma'naviy hayot qoidalarini buzish bilan bog'liq holatlarni oldini olish, ularning

xatti-harakatlarini jamiyatda mavjud shart-sharoitlarga moslashtirishga oid fidoyilik, insonparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi axloqiy me'yorlarni shakllantirishga xizmat qilgan;

o'smirlar negativ xarakteridagi jismoniy va verbal tajovuzlar, o'zini o'zi idora qila olmaslik, emotsional labillikning ijtimoiy-madaniy jarayonlarga moslasha olmaslik, huquqbuzarlikka moyillik, ma'naviy begonalashuv holatlari bilan adekvat ekanligi, ularni jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va yoshlarning bandligini ta'minlash, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish asosida bartaraf etish imkoniyatlariga doir ilmiy natijalaridan Yoshlar ishlari agentligining 2023-yilga mo'ljallangan ish rejasini tuzishda, viloyat va tumanlarda o'tkazilgan tadbirlar, davra suhbatlari va targ'ibot faoliyatlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va Sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 16-yanvardagi 2-13-21-127-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlar yetakchilarini o'smirlar bilan ishlash bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma va malakasini oshirish bo'yicha o'quv-seminarlar, treninglar tashkil etishda, mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini to'laqonli va samarali joriy etilishida nazariy asos sifatida xizmat qilgan;

o'smirlar g'ayriqonuniy yoki g'ayriaxloqiy xatti-harakatlarini umumijtimoiy me'yorlarga moslashtirishda gemostatik (xatti-harakatlarni muhit bilan muvofiqlashtirish), pragmatik (foyda olish va naf ko'rish bilan bog'liq holatlarga muvofiqlashtirish) postulatlarini g'oyaviy tarbiya (yo'naltiruvchi), bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishga chorlash (korreksion-rivojlantiruvchi) hamda bilim va ko'nikmalarni ijtimoiy amaliyotda qo'llash (prakseologik) bosqichlariga doir nazariy xulosalari va takliflardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan FZ-2020010829-raqamli "Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari" (2020-2022-yy) amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 10-yanvardagi 04/11-301-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ilmiy loyiha yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan, jamiyat ijtimoiy samaradorligini ta'minlovchi mavjud sharoitlar, imkoniyatlar asosida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda o'z vataniga sodiqlik, tashabbuskorlik, daxldorlik tuyg'ularini yuksaltirishga xizmat qilgan;

zamonaviy jamiyatda o'smirlar xulq-atvori shakllanishi determinantlarining qonuniyatlari ma'naviy-axloqiy qiyofaning barqarorligini ta'minlashi, fuqarolik mas'uliyatini yuksaltirishi, ma'naviy hayotning ijtimoiy tizimlarga ijobiy ta'sirini oshirishi, ijtimoiy mas'uliyat yuklashi, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlar uyg'unligini ta'minlashiga oid ilmiy yangiliklaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2022-2023-yillarda efirga uzatilgan "O'zbekiston yoshlari", "Ta'lim va taraqqiyot", "Bolalar va biz" kabi dasturlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 29-dekabrda 04-36-1994-son ma'lumotnomasi). Natijada, jamiyatda o'smirlar ma'naviy axloqiy qiyofasini barqarorlashtirishga va ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan amaliy ishlar samaradorligi oshishiga, shuningdek, o'smirlarning ma'naviy borlig'i transformatsiyasi sharoitida ularning deviant xulq-atvorini namoyon bo'lishini

oldini olish va mavjud holatlarni bartaraf etishga, yoshlarning kasbga sodiqlik, tashabbuskorlik, fidoyilik, daxldorlik tuygʻusi sifatleri yuksalishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari boʻyicha 8 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʻlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 131 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi, muammoning oʻrganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bogʻliqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qoʻllanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, eʻlon qilinganligi, tuzilishi va hajmi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Zamonaviy jamiyatda oʻsmir xulq-atvori ijtimoiy determinantlarini oʻrganishning nazariy-metodologik xususiyatlari”** deb nomlangan boʻlib, unda oʻsmir, xulq-atvor tushunchalari va uning zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-maʼnaviy hayot bilan bogʻliq determinantlarini oʻrganishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari, globallashuv davrida oʻsmir xulq-atvori ijtimoiy determinantlarining shakllanish shart-sharoitlari va qonuniyatlari tadqiq etilgan.

Dissertatsiyada oʻsmir xulq-atvori bilan jamiyatda mavjud axloqiy normalar, anʼanalar va qadriyatlarining oʻzaro aloqadorligi, oʻsmir yoshdagi insonlarning ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan xatti-harakatlari, ularning jamiyatdagi vazifalarini oʻz vaqtida masʼuliyat bilan bajarishlari bilan bogʻliq fenomen hisoblanishi asoslab berilgan. Shuning bilan birgalikda oʻsmirlik inson umrining muhim bosqichi hisoblanishi bilan birgalikda oʻziga xos xatti-harakatlar va xarakterlar shakllana boshlashi, dunyoni anglash bilan bogʻliq tafakkur tarzining vujudga kelishi bilan xarakterlanishi ochib berilgan.

Oʻsmir xulq-atvori tushunchasining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini oʻrganish muhim masala hisoblanadi. Mazkur fenomen ilgari pedagogika, psixologiya, huquqshunoslik va sotsiologiya kabi fanlarda oʻrganilgan. Shuni taʼkidlash lozimki, oʻsmir, yaʼni yoshlarning eng muhim bosqichdagi qatlami jamiyatda ham ijtimoiy, ham maʼnaviy jabhalarda muhim oʻrin tutadigan toifalardan hisoblanadi. Shuningdek, yaxshi xulqli boʻlish, yaʼni axloq normalariga rioya etish, maʼnaviy

komillika erishish borasidagi barcha sa'y-harakatlar insonning yoshlik, ya'ni o'smirlik davridan boshlanadi. Shu jihatdan olib qaraganda o'smir xulq-atvorini ijtimoiy determinantlarini o'rganish zamonaviy falsafa fanining dolzarb muammolari qatoriga kiradi. "Xulq-atvor – axloqshunoslik tushunchalaridan biri. Insonning fe'l-atvori bilan bog'liq axloqiy hodisa bo'lib, kishi fe'lining axloqiylik doirasida namoyon bo'lishi tushuniladi. Insonning axloqiylik doirasidagi xatti-harakatlari xulqdan tashqari odob va axloq o'z ichiga oladi. Xulq-atvor qamrovlilik jihatidan ana shu ikki hodisa o'rtasidagi xususiyatlarga ega: u odobdan keng, axloqdan tor ma'noga ega bo'lib, axloq singari jamiyat, zamon, tarix miqyosidagi voqelikka ta'sir ko'rsata olmaydi"⁹. Mazkur ta'rifda xulq-atvorning ijtimoiy hodisa ekanligi, shaxs va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy-ma'naviy munosabatlardagi o'rni aniq ko'rsatib o'tilmagan.

Tadqiqotchi fikricha, shaxs xulq-atvori uning atrof-muhit bilan bog'liq axborotlar va ma'lumotlar olish va uni tahlil etish bilan aloqador bo'lgan faoliyati orqali xatti-harakatlarining faollashuvi, ichki va tashqi omillar ta'sirida o'zining ijtimoiy-ma'naviy faoliyatidagi qarashlari, g'oyaviy tamoyillari va shunga mos ravishda o'z yo'nalishlarini o'zgartirish qobiliyati bilan xarakterlanadi. Shaxs xulq-atvori jamiyatda belgilab berilgan axloqiy normalar, tarixiy an'analar va ma'naviy qadriyatlarning o'z idroki va ijtimoiy, psixologik va madaniy asoslardagi qobiliyat darajasi orqali ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xatti-harakatlari majmuyi hisoblanadi.

Dissertatsiyada o'smir xulq-atvorining barqaror ravishda bo'lishida quyidagi axloqiy sifatlar muhim o'rin tutishi asoslab berilgan:

- insoniylik – umuminsoniy va milliy insonparvarlik xislatlarini o'zida mujassam etish, inson sha'ni, qadr-qimmatini va erkinliklarini hurmat qilish, jamiyatda yashovchi ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar barcha shaxslarni teng asoslarda hurmatini joyiga qo'yish;

- vijdonlilik – jamiyat hayotida o'zini ma'naviy darajalarini namoyon etish orqali, o'zining ijtimoiy jarayonlarda yurakdan va sidqidildan olib boradigan harakatlarini namoyon etish va bu amaliyotda o'z burchiga sodiqlik namunalari aks ettirish;

- or-nomus – jamiyatda mavjud milliy va diniy qadriyatlar, asrlar davomida shakllangan inson ma'naviyatiga xos bo'lgan an'analarga daxldor bo'lgan yozilgan va yozilmagan me'yorlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotda mavjud bo'lishida qalbdan mas'ullik;

- adolat – insonning haq-huquqini ijtimoiy hayotda vujudga kelishi uchun turli xil nohaqliklar, to'siqlar va salbiy holatlarga qarshi kurash, ijtimoiy-ma'naviy barqaror muhitni vujudga keltirishda insonga yordam, uning to'laqonli hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

O'smir xulq-atvorini ijtimoiy determinantlarini yoshlar ijtimoiy hayoti qonuniyatlarga binoan tadqiq etish ularning bir butun ongli faoliyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganishdir. O'smir faoliyatining ongliligi uning turli-tuman xatti-harakatlarida, ya'ni oilaviy munosabatlar, jamoatchilik ichida, o'qish va

⁹ Хулқ-атвор. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-x/xulq-uz/>

madaniy faoliyatida namoyon bo'ladi. O'smirning shaxsi har xil shakl va mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy hayot faoliyatida namoyon bo'la boradi, kundan kunga tadrijiy asosda rivojlanib boradi. Bunda tabiiy, geografik, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va ma'naviy muhit, gen bilan bog'liq belgilari, ta'lim va tarbiya asosiy omillar hisoblanadi.

O'smirlar xulq-atvoriga qaratiladigan ma'naviy tahdidlar ularning axloqiy dunyosini izdan chiqarish, ularni ijtimoiy hayotidagi turli ijobiy tusdagi qadriyatlariga putur yetkazishi mumkin. Jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot jarayonlari, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan turli xil chora-tadbirlarni samarali tashkil etilishi o'smirlar xulq-atvoriga ta'sir etadigan turli tahdidlar va salbiy ko'rinishdagi ta'sirlarni oldini oladi. Ayni paytda taraqqiyotning hozirgi tezkor sur'ati yoshlar shaxsi, dunyoqarashi, qobiliyatini kamol toptirishni talab qilmoqda. Ushbu muammolar ham jamiyatda bir qator muhim ishlarni va chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini keltirib chiqaradi:

birinchidan, o'smirlarning bugungi kun nuqtayi nazaridan innovatsion fikrlashlarini vujudga keltirish;

ikkinchidan, o'smir yoshdagilarning milliy manfaatlar doirasida o'zlarining faoliyat yo'naltirishlari, jamiyatda muhim asoslarda shakllangan ijtimoiy va huquqiy normalarga og'ishmay amal qilish qobiliyatlarini shakllantirish;

uchinchidan, jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy hamda ma'naviy yo'nalishdagi tuzilmalarning yoshlar faolliklarini oshirish va mustahkamlash borasidagi faoliyatini yanada jonlantirish;

to'rtinchidan, ta'limda va u bilan bog'liq infratuzilmalarda o'smirlarning ijtimoiy-ma'naviy salohiyatini oshiradigan turkum fanlarni o'qitishni kengaytirish, ularning dasturlarini milliy manfaatlar qoida va tamoyillari asosida tuzish va mashg'ulotlarni shu asosda olib borish.

Dissertatsiyada o'smir xulq-atvori tushunchasi va uning zamonaviy jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy hayot bilan bog'liq determinantlarini o'rganishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari quyidagi omillar bilan bog'liqligi asoslab berilgan:

- zamonaviy sharoitda o'smirning ma'naviy-axloqiy qiyofasining qanchalik barqarorligi, uning ijtimoiy yo'naltirilganligini, boshqa ijobiy sifatlarning ham muhim jihatlarni namoyon bo'lishi muhim jarayon hisoblanadi;

- yoshlarning fuqarolik mas'uliyatini yuksaltirish jamiyatning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, unda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotga nisbatan yangicha qadriyatlar va an'analarni vujudga kelishiga o'ziga xos zamin yaratadi;

- o'smirlarning axloq normalariga rioya etish, ma'naviy komillika erishishi borasidagi jarayonlar, o'smir xulq-atvorini ijtimoiy determinantlarini o'rganish ijtimoiy falsafa fanining dolzarb muammolariga kiradi;

- yoshlar jamiyat uchun qadrlil ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy ma'naviy an'analarni asrab-avaylashi, ularni doimiy tarzda himoya qilishi ijtimoiy barqarorlikni yuksaltiradi, inson va jamiyat munosabatlari uyg'unligini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning **“O'smir xulq-atvoridagi muammolarni bartaraf etish jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil”** deb nomlangan

ikkinchi bobida o'smir xulq-atvoridagi muammolarni bartaraf etish jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekanligi, deviant xulq-atvor, uning o'smir ijtimoiy-ma'naviy muhitidagi destruktiv xususiyatlari va ularni bartaraf etish omillari tadqiq etilgan.

Tadqiqotda o'smirlar xulq-atvoridagi muammolarni doimiy hal etib bormay turib yoshlarning hayoti va ijtimoiy turmushida ijobiy o'zgarishlar yasash mushkul ekanligi, bu borada uzluksiz sa'y-harakatlar tashkil etish muhimligi qayd etilgan.

O'smirlardagi deviant xulq-atvorni bartaraf etish, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy muammolarini doimiy hal etib borishlari bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirish zarur. Bunday o'smirlarga tegishli tartibda o'z vaqtida ijtimoiy va huquqiy ko'mak va maslahatlar berib borilmasa, ularning xulq-atvori motivlaridagi salbiy illatlar boshqa tengqurlariga ko'chishi, natijada yoshlar o'rtasida axloqiy muammolarning kengayishiga olib kelishi mumkin. Yoshlarning deviant xulq-atvori ularning ijtimoiy mo'ljallarini buzilishi, ma'naviy barqarorligini izdan chiqarishiga olib keladi.

Zamonaviy sharoitda yoshlar ongini va ma'naviy hayotini turli zararli illatlardan asrash, ularning hayotidagi ijtimoiy-ma'naviy muammolarni bartaraf etish borasidagi ko'nikmalarini o'zlashtirishga shart-sharoitlarni yanada mukammal asoslarda yaratish lozim bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, yoshlarimiz ongini buzg'unchi yot g'oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma'rifat o'rnini jaholat egallashiga yo'l qo'ymaymiz. Buning uchun nafaqat mas'ul tashkilotlar, balki barchamiz birgalikda muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini ochib berish, farzandlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo'yicha oila, mahalla va ta'lim maskanlarida ish olib borishimiz zarur"¹⁰.

Tadqiqotchi fikricha, deviant xulq, ya'ni og'uvchi xulq-atvor o'smirning mantiqiy, odatiy, umume'tirof etilgan me'yorlar, an'analar va qadriyatlar bilan bog'liq turmush faoliyatidan keskin farq qiladigan hayot tarzini namoyon etish, o'zi yashab turgan jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan me'yorlar va huquqiy tamoyillarni nazar-pisand qilmasdan xatti-harakatlar olib borish, barqaror ijtimoiy qoidalardan og'ish, begonalashuv jarayoni, demakdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, "Barcha yoshlarning 30%ga yaqin qismi qandaydir qonunga xilof hisoblangan xatti-harakatlarda ishtirok etishi kuzatiladi, shuningdek 5% qismi jiddiy tarzda qonunbuzarlikka yo'l qo'yadi"¹¹.

Dissertatsiyada o'smirlarning deviant xulq-atvorida epileptoid, isterioid va gipertim kabi aksentuatsiyali salbiy xarakterli ko'rinishlar aniqlangan. Epileptoid ko'rinishlarda o'smir xulq-atvorida tajovuzli holatlar, o'zini o'zi idora qila olmaslik, qo'pollik va boshqalardan ustun bo'lish xatti-harakatlari kuzatiladi.

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига қилган мурожаатномаси. 2023 йил 20 декабрь // <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi>

¹¹ Добренъков В.И., Кравченко А.И. Социология: В 3 т. Т.3: Социальные институты и процессы. – М.: ИНФРА-М, 2000. – С. 462.

O'smirlar xulq-atvoridagi isterioidli ko'rinishlar bu – ularning boshqalar diqqat markazida bo'lish, o'zini ko'rsatish, manmanlik bilan bog'liq xatti-harakatlar kiradi. Gipertim ko'rinishlari o'smirlarda boshqalar bilan muloqotda faollik, gavda va qo'l harakatlaridan to'xtamaslik, o'zini gapini ma'qullatishga harakat qilish, so'zlashuvda gal bermaslik kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bunday aksentuatsiyali tiplar ijtimoiy-ma'naviy hayotning normalari va qoidalarini turli darajalarda buzish, tajovuzlarning oshishi, atrof-muhit, jamoatchilik va tengqurlariga qo'pol munosabatlarda bo'lish, ularni mensimaslik, egoizm bilan bog'liq ko'rinishlarni namoyon etishlari bilan xarakterlanadi. Shuningdek, bunday tipdagi o'smirlarda o'z negativ shaxsiy xarakteridagi jismoniy va verbal tajovuzlardan tashqari yuqori darajadagi o'zini o'zi idora qila olmaslik, emotsional labillik holatlari kuzatiladi.

Tadqiqotchi o'smirlik yoshida deviant xulq-atvorning vujudga kelishiga turli xil ijtimoiy sabab va shart-sharoitlar tadqiq etib, ularni quyidagicha asoslab bergan:

birinchidan, salbiy ijtimoiy tajriba, ya'ni atrof-muhit, kattalar va yon-atrofdagilarning salbiy ohangdagi xatti-harakatlaridan andoza olishi;

ikkinchidan, o'smirning oilasini notinchligi, oilada ota-onaning namuna bo'la olmasligi, ular tomonidan nojo'ya xatti-harakatlarning sodir etilishidir, natijada "qush uyasida ko'rganini qiladi", maqoliga mos ravishda o'smir oilaviy salbiy shart-sharoitlarga hamohang ulg'ayishi;

uchinchidan, deviant xulq-atvorning vujudga kelishiga o'smirning atrofidagi do'stlari, birga yuradigan guruhlar va tasodifiy aralashib qolgan turli to'dalarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari va bu jarayonda o'smirning ulardan andoza olishga o'zining ehtiyoji yoki xohishi, shuningdek, o'zini ko'rsatishga urinishi sabab bo'lishi;

to'rtinchidan, tarbiya jarayonidagi kamchiliklar, ya'ni o'smirning o'zi tarbiya olayotgan muassasa muhitidagi kamchiliklar, tarbiyachilarning o'z ishiga usta emasligi, mas'uliyatsizligi, mazkur jarayonni bo'sh holda olib borishi kabilar.

Shuningdek, o'smirning deviant xulq-atvorini quyidagilardan iboratligini ta'kidlagan: o'g'rilik, bezorilik, yon-atrofdagi kishilarni sababsiz haqorat qilish, jismoniy zo'rlik ishlatish va qiynash, nomusga tegish, fohishalik, daydilik, narkomaniya, psixotrop moddalar iste'moli, ichkilikbozlik, qimorbozlik, odam o'ldirish, ijtimoiy soha obyektlariga putur yetkazish, davlat mulkini o'g'irlash, transport obyektlarini zararlash, keksa kishilarni me'dasiga tegish yoki masxara qilish, jamoat orasida tartibsizlik qilish, ko'chalarda shovqin-suron ko'tarish, odamlarda vahima uyg'otish va qo'rqitish, pirotexnika vositalaridan foydalanish, dam olish joylarida va aholi orasida yarimyalang'och yurish, o'qituvchilar, murabbiylar yoki tarbiyachilarni haqorat qilish, tibbiyot xodimlariga jismoniy zarar yetkazish kabi xatti-harakatlarni sodir etish hisoblanadi.

Dissertatsiyada jamiyatda yoshlar axloqiy madaniyati va ijtimoiy jihatdan faoliyatini barqaror tashkil etilish jarayonlarini shakllanishiga to'siq bo'ladigan birqancha destruktiv omillar mantiqiy dalillangan. Masalan:

- o'smirlar huquqlarini amalga oshirishdagi bo'shliqlar;
- o'smirlarning milliy mentalitetga to'siq bo'ladigan o'ziga xos salbiy qadriyatli xususiyatlari;

- jamoatchilik, ommaviy axborot vositalarining yoshlar hayoti destruktiv jarayonlarini bartaraf etishga ta'sirining samarali emasligi;

- ba'zi o'smirlarning huquqiy bilimlari va ma'naviy dunyoqarashi darajasining yuqori emasligi;

- o'smirlar bilan ishlashda har doim ham huquqni muhofaza qilish subyektlarining kasbiy salohiyatini yetarli darajada emasligi;

- ba'zi o'rinlarda huquqiy ta'limdagi mavjud kamchiliklar, bu borada infratuzilmalar va kadrlarning yetishmasligi.

O'smirlar deviant xulq-atvorini bartaraf etish va oldini olishda ularning qiyin va muammoli vaziyatlardan chiqib ketish va ijtimoiy munosabatlarda ishtirokini faollashtirish uchun olib boriladigan tarbiyaviy chora-tadbirlarni ko'lamini kengaytirish va samaradorligini oshirish lozim. Bu borada uch bosqichda chora-tadbirlar dasturini olib borish lozim:

1. Yo'naltiruvchi bosqich. Bu bosqichda g'oyaviy va tarbiyaviy momentlar orqali o'smirlarni jamiyat ishi uchun foydali bo'lgan ishlarga da'vat etish, ularni ijobiy xatti-harakatlarga ilhomlantirib borish;

2. Korreksion-rivojlantiruvchi bosqich. Bunda ularni turli mashg'ulotlar, mashqlar va to'garaklarga jalb qilish, ularni bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga chorlash;

3. Mustahkamlash bosqichi. Bilim va yo'llanmalar olish jarayonida yig'ilgan ko'nikmalarni ijtimoiy amaliyotda qo'llash bilan bog'liq ishlarni bajarish va bu borada turli tajriba-sinov dasturlarini ham joriy etish.

Dissertant o'smirlardagi deviant xulq-atvorning mavjudligi ularning turli hayotiy vaziyatlardan chiqib ketishlariga ko'maklashish, ijtimoiy-ma'naviy muammolarini hal etish bo'yicha e'tiborni kuchaytirishni kun tartibiga qo'yadi. Agar bu o'smirlarga o'z vaqtida ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy ko'mak berilmaydigan bo'lsa, ularning deviant xulq-atvorining ko'rinishlari atrof-muhitdagilarga ham ko'chib o'tishi, natijada jamiyatda axloqiy muammolarning ortishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlagan. Shuning uchun bunday xarakterdagi o'smirlarning vujudga kelishiga nisbatan jiddiy profilaktik tadbirlarni olib borish, ularning bekam-u ko'st ma'naviy kamol topishlari uchun muhim ijtimoiy muhit yaratilib borilishi lozim, – deb qayd etgan.

